

**HARBIY TA'LIM TALABALARIDA G'OYAVIY MAFKURAVIY
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH****Erkinov Umidjon Sobirjon o'g'li***Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti**CHXT yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: *Harbiy ta'lim talabalarida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot harbiy ta'lim jarayonida talabalarining g'oyaviy-mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirish, ularning vatanparvarlik, mas'uliyat va axloqiy qadriyatlarini mustahkamlashga qaratilgan. Tadqiqotda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari, shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va interfaol usullardan foydalanish orqali bu jarayonni samarali tashkil etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Harbiy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinib, talabalarda vatanparvarlik ruhini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq mas'uliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijasida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlar ishlab chiqiladi, bu esa harbiy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini yanada samarali qilishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *harbiy ta'lim, g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik, vatanparvarlik, axloqiy qadriyatlar, ta'lim texnologiyalari, axloqiy rivojlanish, professional kompetentlik, g'oyaviy dunyoqarash, mas'uliyat hissi.*

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga oid davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan buning negizida kelajagimiz bunyodkorlari bo'lgan yoshlarni inson qalbi va ongini angalash, uchun mafkuralar o'rtasidagi kurash asrida yashayotgan bir davrda turli xil yod g'oyalar va tajovuzlardan asrab qolish asosiy vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Zotan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyev takidlaganidek "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bolib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI-asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Shu sababdan ham har bir professional ta'lim muassasasi o'z bitiruvchilarining kasbiy mahorati bilan birga ularning g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratishi lozim bo'lib, bunday dolzarb muammoni ijobiy darajada hal qilish kasbiy kompetentlikni tarkib toptirish doirasida hal etilishi lozim. Bo'lajak mutaxassislarda g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini yoritib berish maqsadida ushbu maqola doirasida "g'oya", "mafkura", "kompetentsiya", "kompetentlik", "g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik" kabi

tushunchalar tahliliga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, g'oya – inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega b'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikrdir. O'zbek xalqini birlashtirayotgan milliy g'oya o'zining chuqur ildizlari va tarixiy taraqqiyot yo'liga ega. O'zbek xalqi milliy davlatchiligi tarixida to'plangan tajribalar, shuningdek, tarixiy jarayonlardagi yuksalish va inqiroz saboqlari natijasida shakllangan milliy g'oya xalqimiz qo'lga kiritgan mustaqillikni mustahkamlashda, milliy tarbiyaviy qadriyatlarni tiklash va yoshlarni barkamollikka yetkazishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Bugun komil insonni tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng miqyosli ishlarni amalga oshirar ekanmiz, biz bevosita har bir inson qalbidagi ana shu nuqtani mo'ljalga olmog'imiz lozim. Mafkuraviy immunitet yoki g'oyaviy kurashchalik fazilati bizning nazarimizda xuddi ana shu nuqtada joylashgan. U kimdadir uyg'oq, kurashchan, behalovat u bezovta bo'lsa, kimdadir mudroq, tambal, befarq va loqaydir. Bizning vazifamiz ana shu immunitetni uyg'otish, shakllantirish asosida jamiyat ishigadaxldor, millat taqdiriga taqdirdosh, Vatan istiqboli uchun javobgar shaxsni shakllantirishdan iborat. Buning uchun mafkuraviy immunitetning vazifasini aniqlab olmog'imiz lozim.

Bizningcha u quyidagilardan iborat:

- munosabat bildirish;
- ta'sir etish;
- yo'naltirish;
- javobgarlik hissini uyg'otish;
- daxldorlik tuyg'usini oshirish;
- safarbarlikka da'vat etish;

Zamonaviy sharoitda harbiy kadrlarni tayyorlash nafaqat ularning jismoniy va kasbiy salohiyatini oshirish, balki g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan yetuk, Vatanga sadoqatli, mustahkam dunyoqarashga ega shaxslar sifatida shakllantirishni ham talab etadi. G'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish bu jarayonning muhim tarkibiy qismidir. G'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik – bu shaxsning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ongli munosabati, milliy g'oya va mafkura asoslarini anglab yetishi, Vatanga, xalqiga, davlatga sadoqatli bo'lishi, mafkuraviy tahdidlarga qarshi mustahkam immunitetga ega bo'lishi, mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik va fuqarolik pozitsiyasini egallashi kabi fazilatlarni o'z ichiga oladi. Harbiy ta'lim tizimi bu faqatgina harbiy bilim va ko'nikmalarni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Harbiy xizmatchilar bu davlat suverenitetining tayanchi, milliy xavfsizlik kafolati bo'lgan shaxslardir. Shu bois, ularning g'oyaviy va mafkuraviy jihatdan yetuk bo'lishi zarur. Bunga milliy g'oya va mafkura asoslarini o'rganish, tarixiy xotira va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy faollikni rivojlantirish, axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirish kiradi. G'oyaviy-

mafkuraviy kompetentlikni shakllantirishda ta'lim jarayonida O'zbekiston tarixi, Milliy g'oya, Falsafa, Odobnoma kabi fanlar orqali, shuningdek davlat ramzlari, tarixiy shaxslar, harbiy qahramonlar hayoti haqida ta'lim berish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Tarbiya va ijtimoiy faoliyatda esa harbiy tantanalar, yurishlar, vatanparvarlik klublari, teatr, muzey, tarixiy joylarga sayohatlar, motivatsion uchrashuvlar va harbiy-vatanparvarlik musobaqalari orqali bu yo'nalishda muhim ishlar amalga oshiriladi. Ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda esa mafkuraviy jihatdan to'g'ri shakllantirilgan kontentlar orqali va tanqidiy fikrlashni o'rgatish orqali g'oyaviy immunitetni oshirish mumkin. Bugungi global axborot makonida turli salbiy g'oyalar, ekstremistik va radikal qarashlar yoshlar ongiga turli yo'llar bilan kirib borishga urinmoqda. Harbiy ta'lim talabasi axborotni tanqidiy tahlil qila olishi, mafkuraviy tahdidlarni ang'lay olishi, mustahkam fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishi lozim. Harbiy ta'lim talabalarining g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish – bu davlatning mafkuraviy xavfsizligi va mustahkam harbiy salohiyatini kafolatlovchi muhim omildir. Bu borada ta'lim va tarbiya uyg'unligi, ijtimoiy faollik va shaxsiy namunaviylik asosiy omil hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, harbiy ta'lim muassasalarida g'oyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish – bu harbiy kadrlarda mustahkam ijtimoiy-siyosiy pozitsiya, vatanparvarlik tuyg'usi, milliy g'oya va mafkura tamoyillariga sadoqat bilan yondashuvni shakllantirishga qaratilgan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bugungi globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlar, yot g'oyalar va axborot urushi sharoitida yosh avlod, xususan, harbiy sohada tahsil olayotgan talabalar eng muhim ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Ularning ongi va dunyoqarashini mustahkamlash, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi, milliy manfaatlarni ang'laydigan, O'zbekistonning davlat siyosatini qo'llab-quvvatlaydigan shaxs sifatida shakllantirish davlatimiz mafkuraviy xavfsizligining kafolati bo'lib xizmat qiladi.

G'oyaviy-mafkuraviy kompetentlik bu faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatda namoyon bo'ladigan, hayotiy tajriba bilan boyitiladigan shaxsiy fazilatlar yig'indisidir. Shuning uchun bu kompetentlikni shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi, fanlararo integratsiya, innovatsion metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy ta'lim muassasalarida bu yo'nalishdagi ishlar tizimli tashkil etilsa, natijada mafkuraviy barqarorlikka ega bo'lgan, axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetga ega bo'lgan, Vatan oldidagi burchini sharaf bilan bajarishga tayyor, yetuk harbiy kadrlar yetishib chiqadi.

Shu bilan birga, g'oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni shakllantirishda har bir o'qituvchi, tarbiyachi va rahbar kadrning shaxsiy namunasi, ular olib borayotgan ishlarning samimiyligi va tizimlilihi alohida o'rin tutadi. Talabalar o'z ustozlarining hayotiy pozitsiyasi, kasbga bo'lgan mehr-muhabbati, yurtga bo'lgan sadoqati orqali mafkuraviy jihatdan kuchli shaxs sifatida shakllanadilar. Bu esa o'z navbatida,

jamiyatda sogʻlom mafkuraviy muhitni barpo etish, milliy gʻoya asosida yashaydigan va ishlaydigan yosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, harbiy taʼlim tizimida gʻoyaviy-mafkuraviy kompetentligini rivojlantirish boʻyicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doimiy yangilanib borilishi, zamonaviy tahdid va xatarlar bilan uygʻunlashtirilgan holda tahlil qilinishi, eng asosiysi esa har bir talabani qalban oʻzgartiruvchi va vatanparvarlik ruhida kamol toptiruvchi vositaga aylanishi lozim. Chunki kelajakda Vatan mudofaasi, jamiyat xavfsizligi va davlat mustaqilligi aynan bugungi harbiy taʼlim oluvchilar zimmasiga tushadi. Ular faqat kuchli harbiy tayyorgarlik emas, balki mustahkam mafkuraviy immunitet, yuksak axloqiy fazilatlar, sogʻlom dunyoqarash va fidoyilik asosida shakllangan shaxslar boʻlishi kerak. Bu esa oʻz navbatida, harbiy taʼlimning strategik vazifalaridan biri sifatida davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxida tarbiyalash Konsepsiya 2023-yil 29-iyunda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 267-son qarori
2. Oʻzbekiston Respublikasi konstitutsiyasi
3. Abdullaev, A. (2023). Harbiy taʼlimda vatanparvarlik tarbiyasi: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Karimov, I. A. (2000). Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Maʼnaviyat nashriyoti.
5. Xolmatov, M. (2021). Harbiy pedagogika va psixologiya. Toshkent: Harbiy nashriyot.
6. Toshtemirov, B. (2022). Zamonaviy taʼlim texnologiyalari va ularning harbiy taʼlimda qoʻllanilishi. Jurnal: Oʻzbekiston Harbiy Axborotnomasi, 4-son, 45-52-betlar.
7. Oʻzbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi. (2020). Harbiy taʼlim kontsepsiyasi va vatanparvarlik tarbiyasi boʻyicha yoʻriqnomasi. Toshkent: Mudofaa Vazirligi nashriyoti.